O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SHAHRI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 13-dekabr 918-14-0-Q/24 Toshkent shahar hokimligi

Toshkent shahridagi jamoat transporti tizimida yo‘lkira haqini to‘lashda elektron to‘lov tizimidan foydalanishni rag‘batlantiruvchi tariflarni joriy etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat transportini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 25-martdagi PQ–139-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 17-sentabrdagi 273-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida yo‘lovchilar aylanmasini va umumiy foydalaniladigan avtomobil va elektr transportida shaharda, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro yo‘nalishlarda hamda soatlar bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilar sonini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizom”ga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2024-yil 13-noyabrdagi 05/19-47-son topshirig‘iga asosan Toshkent shahrida umumiy foydalaniladigan jamoat transportida ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifatini oshirish, jamoat transportida to‘lovlar shaffofligini ta’minlash, yo‘lkira haqini to‘lashda elektron to‘lov tizimlaridan foydalanishni rag‘batlantirish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Quydagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat transportini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 25-martdagi PQ–139-son qaroriga muvofiq jamoat transportida yo‘lkira haqini to‘lashda elektron to‘lov tizimidan foydalanishni rag‘batlantiruvchi tariflar joriy etilishi belgilanganligi;

O‘zbekiston Respublikasining “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq shahar yo‘lovchilar transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish haqini

to‘lash Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati organlari tomonidan yo‘l qo‘yiladigan doirada belgilangan tariflar bo‘yicha amalga oshirilishi qayd etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2025-yil 1-yanvardan Toshkent shahrining jamoat transporti yo‘nalishlarida (avtobus va metropoliten) qatnovlarni amalga oshirish uchun yo‘lkira haqining quyidagi cheklangan tariflari belgilansin:

a) bir yo‘lovchi qatnovi uchun cheklangan tarif – 3 000 (uch ming) so‘m. Bunda, bir yo‘lovchi qatnovi uchun 1 (bir) martalik to‘lovni elektron to‘lov tizimi orqali amalga oshirilganda rag‘batlantiruvchi chegirma qo‘llanilgan holda – 1 700 (bir ming yetti yuz) so‘m undiriladi;

b) bir yo‘lovchining bagajini tashish bo‘yicha xizmat uchun – 4 000 (to‘rt ming) so‘m;

d) qatnovlar soniga bog‘liq holda belgilangan tarif rejalarini hisoblash uchun cheklangan tarif – 1 600 (bir ming olti yuz) so‘m.

Qatnovlar soniga bog‘liq holda belgilangan transport kartalarining va transport kartalaridan foydalanilgan holda bir soat ichida bir yo‘nalishli yo‘lovchi transportidan boshqasiga o‘tish sonidan kelib chiqqan holda imtiyozli va bepul tarif rejalarining narxlari o‘zgarishsiz qoldirilsin;

Toshkent shahri yo‘nalishlaridagi barcha avtobuslar salonida yo‘lkira haqini naqd pulda olish amaliyotidan voz kechilsin va yo‘lkira haqini faqat elektron tarzda qabul qilish amaliyoti joriy etilsin.

3. Elektron to‘lovlarni amalga oshirishda amaldagi kunlik va oylik tariflarga qo‘shimcha ravishda qatnovlar sonidan kelib chiqib, ko‘p martali tarif rejalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Toshkent shahar Transport boshqarmasi (M.Ikramov) mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, ikki kun muddatda qonunchilik hujjatlariga muvofiq yo‘lovchilarni tashuvchi tegishli tashkilot va korxonalar bilan tuzilgan tanlov (tender) shartnomalariga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

5. Toshkent shahar hokimining 2023-yil 31-oktabrdagi 666-14-0-Q/23-son qarori 2-bandi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmati (G.Kasimova) mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va www.toshkent.uz veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Toshkent shahar hokimining o‘rinbosari A.Xen zimmasiga yuklansin.

Toshkent shahar hokimi **Sh.Umurzakov**

Toshkent shahar hokimining
2024-yil 13-dekabrdagi
918-14-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Elektron to‘lovlarni amalga oshirishda qatnovlar sonidan kelib chiqqan holda avtobus yo‘nalishlaridagi ko‘p martalik

TARIF REJALARI

T/r	Tarif rejasining nomlanishi	Amal qilish muddati	Avtobusdagi qatnovlar soni	Tarif rejasining narxi, so‘m
1.	10 martalik	2 kun	10	16 000
2.	20 martalik	5 kun	20	30 000
3.	30 martalik	7 kun	30	44 000